

8-dars. O'rganilganlarni takrorlash



1. **0, 5, 8** raqamlaridan foydalanib, barcha mumkin bo'lgan **uch xonali** sonlarni shunday tuzingki, hech bir sonda raqamlar takrorlanmasin.

- a) Har bir sonning xonalari tarkibini ayting.
- b) Har bir sonda nechta to'liq o'nlik bor? To'liq yuzlik-chi?



Biz arab raqamlari deb ataydigan raqamlar Hindistonda kashf qilingan. Hindlarning muhim kashfiyotlaridan biri **0 (nol) raqami** bo'lgan. Nol tufayli hatto eng katta sonlarni ham o'nta raqam yordamida yozish imkoniyati paydo bo'lgan.



Bu raqamlar buyuk olim Muhammad al-Xorazmiy bobomizning ilmiy ishlari tufayli butun dunyoga keng tarqalgan.



2. Sonlarni **raqamlar bilan** yozing:

- a) 2 ta minglik va 487 ta birlik; b) 5 ta minglik va 304 ta birlik;
- d) 12 ta minglik va 100 ta birlik; e) 280 ta minglik va 600 ta birlik.



3. Arab raqamlari paydo bo'lguniga qadar Yevropada rim raqamlari qo'llanilgan. Ifodalardagi sonlarni **arab raqamlari bilan** yozing va amallarni bajaring.

$$XII + III$$

$$XC : X$$

$$X - VIII$$

$$VII \cdot V$$

rim raqamlari	ularning qiymati
I	1
V	5
X	10
L	50
C	100



4. 7 ta magnitli suvenir uchun 56000 so'm to'landi. Shunday 5 ta suvenir uchun necha ming so'm to'lash kerak?



5. Ifodalarning qiymatini hisoblang va ularni taqqoslang.

$225 + 118 \square 582 - 193$

$$4 \cdot 9 + 75 \quad \square \quad 124 - 7 \cdot 6$$

$604 - 397 \square 181 + 92$

$$56 : 8 + 19 \square 32 - 27 : 3$$



6. Sayyohlar ekskursiyaga soat **9:00** da chiqishdi. Ular diqqatga sazovor joylarni tomosha qilishga 3 soat 30 minut, bozorga borish uchun esa undan 1 soat 20 minut kam vaqt sarflashdi. Ekskursiya soat nechada tugagan?



7. Ifodalarni yozing va ularning qiymatini hisoblang.

a) Eng katta ikki xonali son bilan eng kichik uch xonali sonning yig'indisidan 3 marta orttirilgan eng katta bir xonali sonni ayirish.

b) Eng katta uch xonali son bilan eng kichik natural son ayirmasidan eng katta ikki xonali sonni ayirish.



8. **Qonuniyatni** aniqlang va keyingi rasm qanday bo'lishini toping.



9. 8 ta sopol haykalcha uchun 72000 so'm to'landi. Shunday 3 ta haykalcha uchun necha so'm to'lash kerak?

10. Ifodalarning qiymatini hisoblang. Hosil bo'lgan natijalarni **o'sish** tartibida joylashtiring va Muhammad al-Xorazmiy izlanishlari tufayli qanday atama paydo bo'lganligini bilib oling.

A $60 : 6 - 7$

M $33 + 7 \cdot 7$

G $48 : 6 + 8$

O $54 : 9 + 18$

1 $59 - 6 \cdot 4$

R $72 : 9 + 19$

L $81 : 9 + 6$

T $64 - 8 \cdot 3$

